

PIRLS YONDASHUVI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA O'QISH SAVODXONLIGINI REAL HAYOTIY VAZIYATLAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING METODIK IMKONIYATLARI

Kunduzxon Ruziyeva Yusuffjanovna,

*A. Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti,
Xalqaro tadqiqotlar markazi, "Tadqiqot materiallarini tayyorlash"
bo'limi bosh mutaxassisi ruziyeva.kunduzkhan@gmail.com
+99897 441 81 77*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini real hayotiy vaziyatlar orqali rivojlantirishning metodik imkoniyatlari PIRLS xalqaro baholash dasturi yondashuvi asosida tahlil qilinadi. O'qish savodxonligining zamonaviy talqini, PIRLSning o'qish maqsadlari va tushunish jarayonlari hamda real hayotiy vaziyatlarning didaktik salohiyati o'rganilgan. Real hayotiy vaziyatlarning turlari, ularning PIRLS tushunish jarayonlari bilan uyg'unligi va o'qish savodxonligi darsiga integratsiyalash yo'llari ko'rsatilgan. Tadqiqot natijalari real hayotiy vaziyatlarga asoslangan yondashuv o'quvchilarning funksional o'qish faoliyatini faollashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun keng metodik imkoniyatlar yaratishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, PIRLS, real hayotiy vaziyatlar, boshlang'ich ta'lim, funksional savodxonlik, matnni tushunish, tushunish jarayonlari, metodik imkoniyatlar.

**Методические возможности развития
читательской грамотности учащихся
начальных классов посредством реальных
жизненных ситуаций на
основе подхода PIRLS**

Кундузхон Рузиева Юсуфжановна,
Национальный институт педагогического
мастерства им. А. Авлони Международный
исследовательский центр Главный специалист
отдела "Подготовка материалов исследования"

Аннотация: В данной статье методические возможности развития читательской грамотности учащихся начальных классов посредством реальных жизненных ситуаций анализируются на основе подхода международной программы оценки PIRLS. Рассмотрены современная трактовка читательской грамотности, цели чтения и процессы понимания PIRLS, а также дидактический потенциал реальных жизненных ситуаций. Показаны виды реальных жизненных ситуаций, их соответствие процессам понимания PIRLS и пути интеграции в урок чтения. Результаты исследования показывают, что подход, основанный на реальных жизненных ситуациях, создаёт широкие методические возможности для активизации функциональной читательской деятельности учащихся, развития их самостоятельного и критического мышления.

Ключевые слова: читательская грамотность, PIRLS, реальные жизненные ситуа-

ции, начальное образование, функциональная грамотность, понимание текста, процессы понимания, методические возможности.

Methodological possibilities of developing reading literacy of primary school students through real-life situations based on the PIRLS approach

Kunduzkhan Ruziyeva Yusufjanovna,
National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni, Center for International Studies, Chief specialist of the "Assessment Materials Development" department

Abstract: *This article analyses the methodological possibilities of developing the reading literacy of primary school students through real-*

life situations based on the approach of the PIRLS international assessment programme. The modern interpretation of reading literacy, the reading purposes and comprehension processes of PIRLS, and the didactic potential of real-life situations are examined. The types of real-life situations, their correspondence with the PIRLS comprehension processes and the ways of integrating them into reading lessons are presented. The research results show that the approach based on real-life situations creates broad methodological possibilities for activating students' functional reading activity and developing their independent and critical thinking.

Keywords: *reading literacy, PIRLS, real-life situations, primary education, functional literacy, text comprehension, comprehension processes, methodological possibilities.*

Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biriga aylandi. Boshlang'ich ta'lim bosqichi bu jarayonda alohida ahamiyatga ega, chunki aynan shu davrda o'quvchi "o'qishni o'rganish" dan "o'rganish uchun o'qish"ga o'tadi. O'qish savodxonligi jamiyat talab qiladigan yozma til shakllarini tushunish va ulardan foydalanish qobiliyati sifatida talqin qilinadi; o'quvchilar turli matnlardan ma'no qura oladilar, bilim olish va kundalik hayotda ishtirok etish uchun o'qiydilar [7].

Xalqaro tadqiqotlar o'qish savodxonligini samarali rivojlantirish uchun o'quvchini matn mazmunini qayta hikoya qilishga emas, balki matn asosida qaror qabul qilishga, hayotiy muammoni hal etishga va axborotni tanqidiy baholashga o'rgatish lozimligini ko'rsatadi [8]. Shu ma'noda o'qishni real hayotiy vaziyatlar bilan bog'lab o'rgatish alohida metodik ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi PIRLS yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini real hayotiy vaziyatlar orqali rivojlantirishning meto-

dik imkoniyatlarini nazariy jihatdan asoslash va tizimlashtirishdan iborat.

O'qish savodxonligi va real hayotiy vaziyatlar: nazariy asos

O'qishning zamonaviy nazariyalari uni ma'noni faol qurish jarayoni sifatida talqin qiladi. "Pastdan yuqoriga" modelida tushunish harf va so'zlarni idrok etishdan matn ma'nosiga qarab quriladi [5], "yuqoridan pastga" modelida esa o'quvchining bilimi va kutishlari matnni idrok etishga yetakchilik qiladi [4]. Interaktiv modelda bu ikki jarayon o'zaro bog'liq holda kechadi [11]. Transaksion nazariyaga ko'ra, ma'no o'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro ta'sir jarayonida tug'iladi [10], skema nazariyasi esa o'quvchi yangi axborotni o'z oldingi bilimi bilan bog'lagandagina uni chuqur tushunishini ko'rsatadi [2].

Ushbu nazariyalarning umumiy xulosasi shuki, o'qish o'quvchining hayotiy tajribasi va bilimiga tayangan holda kechadi. Demak, o'qish topshirig'i o'quvchi uchun tanish, ma'noli va real kontekstga ega bo'lsa, tushunish samaraliroq bo'ladi. Bu esa real hayotiy vaziyatlarga

asoslangan yondashuvning nazariy poydevorini tashkil etadi. Funktsional savodxonlik nuqtayi nazaridan ham o'qishning bosh mezonini o'quvchi axborotni real muammoni hal etishda qanchalik qo'llay olishidir [12].

PIRLS yondashuvining real hayotiy vaziyatlar bilan uyg'unligi

PIRLS dasturi IEAning o'qish savodxonligini xalqaro miqyosda baholashga oid ko'p yillik tajribasiga, jumladan 1991-yilgi Reading Literacy Study tadqiqotiga tayanadi [3]. PIRLS konsepsiyasi ikkita o'qish maqsadi – badiiy tajriba orttirish hamda axborotni olish va undan foydalanish negizida qurilgan bo'lib, ular teng nisbatda baholanadi [7]. Ushbu ikki maqsad o'quvchining kundalik hayotidagi o'qish ehtiyojlarini to'g'ridan-to'g'ri aks ettiradi: bola ham zavq olish uchun (badiiy), ham amaliy vazifani bajarish uchun (axborot) o'qiydi. Shu bois PIRLS maqsadlari real hayotiy vaziyatlar bilan tabiiy ravishda uyg'unlashadi.

PIRLS shuningdek to'rtta tushunish jarayonini baholaydi: matndan aniq ma'lumotni topish; bevosita xulosa chiqarish; g'oya va axborotni talqin qilish hamda integratsiyalash; matn mazmuni va shaklini baholash va tanqidiy tahlil qilish [6]. Bu jarayonlarning har biri real hayotiy vaziyat orqali faollashtirilishi mumkin, masalan, doriidagi qo'llanmani o'qishda o'quvchi aniq ma'lumotni topadi, ogohlantiruvchi belgini o'qishda esa uni baholaydi va to'g'ri qaror qabul qiladi. Bu bog'liqlik metodik imkoniyatlarning asosini beradi.

Milliy ta'lim kontekstida funksional o'qish savodxonligi

Real hayotiy vaziyatlarga asoslangan yondashuvning dolzarbligi O'zbekistonning strategik ta'lim siyosati bilan bevosita bog'liqdir. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi ta'lim tizimini aholi talablari va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan darajaga yetkazishni ustuvor maqsad sifatida belgilaydi [1]. Xalqaro standartlarga muvofiqlik esa o'z navbatida

o'quvchilarni PIRLS va PISA kabi baholash dasturlarida qo'llaniladigan mezonlar matndan axborotni topish, talqin qilish, baholash va uni real hayotiy vaziyatda qo'llash asosida tayyorlashni taqozo etadi. Boshqacha aytganda, bu yondashuv milliy ta'lim siyosatining umumiy maqsadini boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darsining aniq, amaliy metodikasiga aylantiradi. Bu yondashuv o'qish savodxonligini shunchaki matnni ovoz chiqarib o'qish yoki mazmunini qayta hikoya qilish emas, balki matndagi axborotni tahlil qilish, baholash va amaliy qarorga aylantirish qobiliyati sifatida talqin etadi. Shu jihatdan milliy ta'lim siyosati PIRLS yondashuvi bilan bir xil metodik yo'nalishda funksional savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan.

Mazkur yo'nalish milliy metodik adabiyotda ilgari surilgan yondashuvlar bilan ham uyg'unlashadi. Q.Husanboyeva va boshqalar ta'kidlaganidek, o'qish savodxonligi darslarida matn ustidagi ishni o'quvchining shaxsiy va kundalik tajribasi bilan bog'lash, savol-topshiriqlarni esa matnni oddiy qayta hikoya qilishdan mustaqil xulosa va tanqidiy mulohaza yuritishga qadar bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish zarur [6]. Bunday bosqichli tizim, mohiyatan, o'quvchining fikrlash faoliyatini reproduktiv darajadan produktiv darajaga ko'tarishga qaratilgan. Ushbu metodik mantiq PIRLS konsepsiyasidagi to'rtta tushunish jarayonining izchil ketma-ketligi bilan bevosita mos keladi: matndan aniq ma'lumotni topish va bevosita xulosa chiqarish quyi (reproduktiv) bosqichni, g'oyalarni talqin qilib integratsiyalash hamda matn mazmuni va shaklini baholash esa yuqori (produktiv, tanqidiy) bosqichni tashkil etadi. Demak, milliy metodik an'ana ham, PIRLS yondashuvi ham o'quvchini bir xil ta'limiy traektoriya axborotni topishdan uni baholash va real vaziyatda qo'llashga qarab harakat bo'ylab yetaklaydi.

Shu bois real hayotiy vaziyatlarga asoslangan yondashuvni chet el tajribasiga taqlid deb emas, balki milliy metodik an'ananing xalqaro baholash mezonlari bilan uyg'unlashgan tabiiy, izchil rivojlanishi sifatida baholash o'rinlidir.

Real hayotiy vaziyatlarning turlari va metodik imkoniyatlari

Boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qish faoliyatiga xos real hayotiy vaziyatlarni shartli ravishda besh turga ajratish mumkin. Har bir tur muayyan PIRLS tushunish jarayoni bilan uyg'unlashadi va o'ziga xos metodik imkoniyat yaratadi. Ushbu bog'liqlik 1-jadvalda keltirilgan.

o'qish savodxonligining turli qirralarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, ijtimoiy-fuqarolik va raqamli-axborot vaziyatlari o'quvchining tanqidiy fikrlashini va axborotni baholash ko'nikmasini shakllantirishda samarali.

Real hayotiy vaziyatlarni o'qish savodxonligi darsiga integratsiyalash metodikasi

Real hayotiy vaziyatlarni o'qish savodxonligi darsiga integratsiyalashning bir necha metodik yo'li mavjud. Birinchidan, matn tanlashda o'quvchining hayotiy tajribasiga yaqin, autentik matnlardan (e'lon, qo'llanma, xat, infografika) foydalanish maqsadga muvofiq.

1-jadval

Real hayotiy vaziyat turlari, ularning PIRLS tushunish jarayonlari bilan uyg'unligi va metodik imkoniyatlari

Real hayotiy vaziyat turi	Vaziyat namunasi	Mos PIRLS tushunish jarayoni	Metodik imkoniyati
Kundalik maishiy vaziyat	Doridagi qo'llanma, mahsulot yorlig'i, retsept matnini o'qish	Aniq ma'lumotni topish; bevosita xulosa chiqarish	Axborotni amaliy vazifa uchun izlash ko'nikmasini shakllantiradi
Maktab hayoti bilan bog'liq vaziyat	Dars jadvali, e'lon, ekskursiya rejasini o'qish	Aniq ma'lumotni topish; talqin qilish va integratsiyalash	Turli manbadagi ma'lumotni qiyoslash ko'nikmasini rivojlantiradi
Ijtimoiy-fuqarolik vaziyati	Ogohlantiruvchi belgi, ko'cha e'loni, xavfsizlik qoidasini o'qish	Talqin qilish; baholash va tanqidiy tahlil	Matnga tanqidiy munosabat va to'g'ri qaror qabul qilishni o'rgatadi
Badiiy-emotsional vaziyat	Hikoya qahramonining o'rnida qaror qabul qilish	Talqin qilish va integratsiyalash; baholash	Empatiya, badiiy tajriba va shaxsiy munosabatni shakllantiradi
Raqamli-axborot vaziyati	Onlayn e'lon, infografika, veb-sahifadan ma'lumot topish	Aniq ma'lumotni topish; baholash va tanqidiy tahlil	Raqamli matnda axborotni saralash va ishonchliligini baholashni o'rgatadi

Manba: muallif ishlanmasi (PIRLS 2021 qamrov doirasi asosida) [6].

Jadvaldan ko'rinadiki, real hayotiy vaziyatlarning turlari PIRLSning barcha tushunish jarayonlarini qamrab oladi. Bu esa o'qituvchiga bitta metodik vosita real hayotiy vaziyat orqali

Ikkinchidan, topshiriqlar o'quvchini matn asosida real vazifani bajarishga qaror qabul qilishga, xulosa chiqarishga, ma'lumotni qiyoslashga yo'naltirishi kerak. Uchinchidan, topshiriqlar

PIRLSning to'rtta tushunish jarayonini bosqichma-bosqich (aniq ma'lumotdan topishdan baholashgacha) qamrab olishi lozim.

Shuningdek, badiiy va axborot matnlarini muvozanatli qo'llash, o'quvchining faol va tanqidiy fikrlashini rag'batlantirish hamda baholashning rivojlantiruvchi tavsifga ega bo'lishi muhim metodik shartlardir. Bunday yondashuv o'quvchida matn bilan mustaqil ishlash, axborotni real vaziyatda qo'llash va o'z fikrini asoslash ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada o'qish savodxonligi nafaqat maktabda, balki kundalik hayotda ham amal qiladigan funksional kompetensiyaga aylanadi.

Mazkur yondashuv boshlang'ich ta'lim metodikasi sohasidagi mutaxassislarning boshlang'ich ta'limga oid ilmiy qarashlari bilan ham uyg'unlashadi. Xususan, K. Qosimova va S. Matchonov o'qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash jarayonini o'quvchilarning hayotiy tajribasi bilan bog'lash, matn mazmunini tahlil qilish, mustaqil xulosa chiqarish hamda o'z fikrini asoslab bayon etishga yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish zarurligini ta'kidlaydilar [9]. Ushbu metodik yondashuv PIRLS tadqiqotida baholanadigan matndan aniq ma'lumotni topish, xulosa chiqarish, axborotni talqin qilish va matnni baholash kabi tushunish jarayonlari bilan bevosita uyg'unlashadi. Shuning uchun o'qish savodxonligi darslarida real hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni qo'llash nafaqat o'quvchilarning matnni tushunish darajasini, balki ularning funksional o'qish savodxonligini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ushbu metodik yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda quyidagi topshiriq namunalari samarali hisoblanadi.

1-namuna. Maktab hayoti bilan bog'liq vaziyat (3-sinf). Masalan, 3-sinf o'qish savodxonligi darsida o'quvchilarga maktab kutubxonasining ish vaqti, kitoblardan foydalanish qoidolari hamda yangi kitoblar ko'rgazmasi

haqidagi e'lon taqdim etiladi. Dastlab o'quvchilar matndan aniq ma'lumotlarni topadilar (kutubxona qaysi kunlari ishlaydi?), keyingi bosqichda "Payshanba kuni kitob topshirish uchun borsangiz, kutubxona ochiq bo'ladimi? Javobingizni matn asosida izohlang", kabi savollarga javob beradilar. Yakuniy bosqichda esa "Mazkur e'lonni tengdoshlaringiz uchun yanada tushunarli qilish maqsadida qanday o'zgartirish kiritgan bo'ladingiz?" topshirig'i orqali matn mazmuni va shaklini tanqidiy baholaydilar. Bunday topshiriqlar PIRLSning barcha tushunish jarayonlarini izchil rivojlantirish bilan birga, o'quvchilarda o'qilgan axborotni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash kompetensiyasini ham shakllantiradi.

2-namuna. Kundalik maishiy vaziyat (2–3-sinf). O'quvchilarga mahsulot (masalan, meva sharbati yoki sut) qadog'idagi yorliq tarkibi, saqlash sharti va yaroqlilik muddati taqdim etiladi. Dastlab ular matndan aniq ma'lumotni topadilar ("Mahsulot qaysi sanagacha yaroqli?"). So'ng bevosita xulosa chiqaradilar ("Yorliq ochilgach 3 kun ichida iste'mol qiling" deb yozilgan bo'lsa, dushanba kuni ochilgan sharbatni juma kuni ichsa bo'ladimi? Javobingizni matn asosida izohlang"). Yakuniy bosqichda esa axborotni baholaydilar ("Ushbu yorliqdagi qaysi ma'lumot xaridor uchun eng muhim va nega?"). Bu topshiriq o'quvchida axborotni amaliy ehtiyoj uchun izlash va xavfsizlik nuqtayi nazaridan baholash ko'nikmasini shakllantiradi.

3-namuna. Ijtimoiy-fuqarolik vaziyati (3–4-sinf). O'quvchilarga jamoat joyidagi ogohlantiruvchi e'lon (masalan, "Muzlagan yo'lakda ehtiyot bo'ling" yoki cho'milish havzasi/o'yingoh xavfsizlik qoidalari) beriladi. O'quvchilar avval qoidalarni aniqlaydilar (topish), so'ng ularning sababini talqin qiladilar ("Nega bu joyda yugurish taqiqlangan?"), keyin real vaziyatda qaror qabul qiladilar ("Do'stingiz qoidani buzmoqchi bo'lsa, unga matndagi qaysi jumla-

ni ko'rsatgan bo'ladingiz?") va nihoyat e'lonning ta'sirchanligini baholaydilar ("Bu e'lonni bolalar yaxshiroq tushunishi uchun qanday o'zgartirgan bo'ladingiz?"). Topshiriq matnga tanqidiy munosabat va mas'uliyatli fuqarolik xulq-atvorini birga rivojlantiradi.

O'tkazilgan tahlil natijasida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, o'qish savodxonligining zamonaviy nazariyalari uni ma'noni faol qurish jarayoni sifatida talqin qiladi va o'qishni o'quvchining hayotiy tajribasi bilan bog'lashni taqozo etadi; bu real hayotiy vaziyatlarga asoslangan yondashuvning nazariy asosini beradi.

Ikkinchidan, PIRLS yondashuvi uning ikkita o'qish maqsadi va to'rtta tushunish jarayoni real hayotiy vaziyatlar bilan tabiiy uyg'un-

lashadi va boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish uchun aniq metodik asos yaratadi. Uchinchidan, real hayotiy vaziyatlarning besh turi PIRLSning barcha tushunish jarayonlarini qamrab oladi va o'qituvchiga o'qish savodxonligining turli qirralarini bir vaqtda rivojlantirish imkonini beradi.

Umuman olganda, real hayotiy vaziyatlarga asoslangan yondashuv o'quvchilarning funksional o'qish faoliyatini faollashtirish, mustaqil va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun keng metodik imkoniyatlar yaratadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu imkoniyatlar asosida topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov orqali asoslash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. – Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0609-son.
2. Anderson R. C., Pearson P. D. A schema-theoretic view of basic processes in reading comprehension // Handbook of Reading Research / P. D. Pearson (Ed.). – New York: Longman, 1984. – P. 255–291.
3. Elley W. B. How in the World Do Students Read? IEA Study of Reading Literacy. – Hamburg: IEA, 1992. – 133 p.
4. Goodman K. S. Reading: A psycholinguistic guessing game // Journal of the Reading Specialist. – 1967. – Vol. 6, No. 4. – P. 126–135.
5. Gough P. B. One second of reading // Language by Ear and by Eye / J. F. Kavanagh, I. G. Mattingly (Eds.). – Cambridge, MA: MIT Press, 1972. – P. 331–358.
6. Husanboyeva Q, Hazratqulov M, Xolsaidov F. Ona tili va o'qish savodxonligiga o'rgatish metodikasi. – Toshkent. Innovatsion-ziyo, 2022– 252 b.
7. Mullis I. V. S., Martin M. O. (Eds.). PIRLS 2021 Assessment Frameworks. – Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2019. – 128 p.
8. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 308 p.
9. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi (Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari va o'qituvchilar uchun darslik/metodik qo'llanma). – Toshkent: Noshir nashriyoti, 2009– 351 b.
10. Rosenblatt L. M. The Reader, the Text, the Poem: The Transactional Theory of the Literary Work. – Carbondale: Southern Illinois University Press, 1978. – 196 p.
11. Rumelhart D. E. Toward an interactive model of reading // Attention and Performance VI / S. Dornic (Ed.). – Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum, 1977. – P. 573–603.
12. UNESCO. The Plurality of Literacy and its Implications for Policies and Programmes. – Paris: UNESCO, 2004. – 30 p.